3. Mardonqul aka. Mirza G'olib xizmat qiladigan idorada Bosh rahbar. 60 yoshlardagi sipo kishi.

4. Tenglash va Hakimjon. Mirza G'olibning o'rtoqlari. U singari idorada oddiy xizmatchi.

5. Lutfiy. 1366-1465-yillarda yashab o'tgan buyuk o'zbek shoiri.

6. Boborahim Mashrab. 1657-1711-yillarda yashab o'tgan buyuk o'zbek shoiri.

7. Jorj Gordon Bayron. 1788-1824-yillarda yashab o'tgan buyuk ingliz shoiri.

8. Amiri said Abul-Hasan Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil As-Somoni. 905-943-yillarda yashab o'tgan butun Xuroson va Movarounnahr podshohi.

9. Bir to'p ezgu, jafokash kishilar.

10. Bir to'p yovuz kishilar; jallodlar va jinoyatchilar.

Odatda, bu kabi tanishtiruv romanga emas, balki dramatik tur janrlariga xos ekanligi o'quvchini ajablantirmay qolmaydi. "Voqeaning boshlanishi", "Birinchi ko'rinish", "Ikkinchi ko'rinish", "Uchinchi ko'rinish" va "To'rtinchi ko'rinish" deb nomlangan o'ziga xos qismlar o'quvchi ko'z o'ngida dramatik asarlardagi "Kirish", "Birinchi parda", "Ikkinchi parda", "Uchinchi parda" va "To'rtinchi parda"ni namoyon qiladi.

"Voqeaning boshlanishi"da asar bosh qahramoni – Mirza G'olibni garchi u qanchalik e'tiroz bildirmasin, xotini Masturaning oy-kuni yaqin qolgani, unga o'zidan boshqa qarovchi yo'qligini aytib zorlanganiga qaramay, Bosh rahbar Mardonqul aka qop-qop va'dalar berib, jumladan, uch-to'rt kun, uzog'i bilan bir haftada dam olishdan qaytadigan o'rtoqlarini uning o'rniga yuborishini aytib, hasharga yuboradi. Mirza G'olib qirqqa yaqin kishi qatorida Bog'ga hasharga majburan jo'nab ketadi. "Bog' – bundan bir necha yil oldin dashtda tashkil etilgan, yarim xo'jalik, yarim qo'riqxon va vazifasini bajargan joyning nomi. Cheksiz maydonni egallagan Bog'da daraxtlar tartibsiz o'sgan, uning ichi to'qayzorga aylangan. Qilinadigan ish mevalarni terib, saralash. Bog'da yordamchilar uchun sharoit yomon emasdi. Umuman, bu yer jannat edi.

Guruhlarga bo'lingancha, narvon, chelak ko'tarib, ertalab biroz, kechga tomon biroz meva terish kerak, xolos...

Biroq...

Mirza G'olib hasharga kelganidan buyon, bezovtalanib-to'lg'anib kun sanar, o'rtoqlari qorasi ko'rinarman, deb atrofga alanglar edi.

Uyda ahvol qanday?! Nima gap?! – u bilmas edi; idoradan nega odam yuborishmayapti?! – tushunmas edi.

Ana-mana birontasi keladi, deb kutib, u charchagan edi.

Oradan yigirma kun o'tib...

Uning o'rniga hech kim kelmadi!"[5; 303-b.]

Asarda Mirza G'olib duch keladigan tepalikdagi xaroba va u bilan bog'liq voqealar "Birinchi ko'rinish" deb nom olgan qismda bayon qilinadi. Mazkur qism Omon Muxtorning boshqa romanlaridagi kabi she'riy epigraf bilan boshlanadi. G'G'ulomning "Tun bilan tong" radifli Navoiy g'azaliga muxammasi bilan boshlanadigan she'riy epigraf Mirza G'olibning ayni damdagi ruhiy holatini tushunishga yordam beradi. Mirza G'olib hashargohni tark etib, to'qayzor oralab, uyiga ravona bo'ladi. Tunda xotinini tush ko'rgan, o'rnidan sapchib turib, meni ossa ossin, bo'ldi, ketaman, degan qarorga kelgan edi. To'qayzor oralab ketib borar ekan, uning xayolini tunda ko'rgan tushi band qilgan edi. Asardagi syurrealistik voqealarning boshlanishi aynan shu tush motiviga borib taqaladi: "Emishki... Bir tomon – osmonga tik sanchilgan tog'. Ikkinchi tomon – qalin qamish o'sgan ko'l.

Shu ikki o'rtada u holsizlanib, ko'ksini yerga berib yotibdi.

Ko'lda qamishlarni oralab qandaydir orasta qayiq suzib bormoqda. Qayiqda – Mastura. Yuzini burib, unga negadir teskari o'tiribdi.

U qo'lini suvga solgancha, yuzini chayib, o'rnidan sapchib turgisi, qayiq sari otilib, qayiqni tutgisi kelmoqda. Ammo yotgan joyida, suvga qo'l cho'zishga ham majoli yetmayapti..."[5; 305-b.]. To'qayzor oralab borar ekan, Mirza G'olib keng sayhonlikda teskari ag'darilgan qozonga o'xshash tepalikka duch keladi. Uning ustida ikki-uchta buzilgan imorat va yana bitta zax bosib ko'kargan, devorlarida yantoq o'sgan xaroba uyga duch keladi. Biroz tin olgandan so'ng, tepalikka ko'tarilib uyga yaqinlashganda uni yungi paxmaygan, ayiqdek it qo'riqlab yotganiga guvoh bo'ladi. Mirza G'olibning to'qayzorda sudralayotib, hamma yog'i shilinib-qonagan, usti ham bir holda edi. Gadoyga o'xshagan bu namoyishda har qanday qobil it ham senga tashlanadi, degan xayolga boradi. Lekin it unga tashlanmaydi. Aksincha, Mirza G'olibning uyga kirishini istagandek, tepalikning boshqa tomonidan pastga enib, xarobadan orqa tarafga qarab ketadi. Xarobaga kirib, uyning ichini ko'zdan kechirgan Mirza G'olib, kimdir (egasi) kelib qolarmikan, deya kutishlari besamar ketadi. Uy kimsasiz edi. Qosh qorayib qolganligi uchun tunni shu yerda o'tkazishga qaror qiladi. Yolg'izlikda xotini Mastura, Bosh rahbar Mardonqul aka, do'stlari Tenglash va Hakimjon hamda bolalikdagi do'sti Lutfullani eslaydi. Yozuvchi Lutfullaning xarakterini tasvirlar ekan, uni qandaydir "xayolparast", "fidoyi" deya ta'riflaydi. "Lutfulla Mirza G'olibning do'sti, u ko'chada, sovuqda bir chekkada diydirab o'tirgan tilanchini ko'rib, shartta egnidagi to'nini yechganicha, bu sizga deb, tashlab ketaveradi. Lutfullaning qanday inson ekanligini shunga qarab tasavvur qilaverasiz", – deydi Omon Muxtor. Umuman, asar qahramonlarini ortiqcha ta'rif-tavsiflarsiz shu kabi qisqa misollar bilan tanishtirish yozuvchining o'ziga xos uslubidir. Muallif Lutfullani o'quvchiga shunday tanishtiradi: "Adabiyotni yaxshi ko'rar, ko'p kitob o'qir; maktabni endi bitirgan, hali biron joyda jiddiy ta'lim olmagan Lutfullaning bilimi, aql-zakovati, ayniqsa, kishini hayron qoldirar edi. U o'tmish shoirlardan Lutfiyga ayriqcha qiziqish bilan qarar, payti kelib, Lutfiy to'g'risida, albatta, kitob yozaman, deb orzu qilar edi. Lutfullaga olimlar adabiyot tarixidan yozgan kitoblar bir xil, jo'n, zerikarli bo'lib tuyular; unga hozirgacha adiblar tarixga bag'ishlab yozgan kitoblar ham uncha yoqavermas edi. Meni ma'lum davrda yuz bergan voqealar emas, insonning ko'nglidan kechgan tarix, yashirin, ko'zga darhol tashlanavermaydigan tarjimai hol ko'proq qiziqtiradi, der edi..."[5; 311-b.]. Lutfullaga xos ushbu xislatni Omon Muxtorning o'z ichki haqiqati, deya talqin qilish mumkin. Ushbu lavhadan so'ng asar voqealari Lutfiyning tarixi, uning hayoti tasviriga bag'ishlangan o'zanga buriladi. Omon Muxtor yuqorida Lutfulla aytganchalik "ma'lum davrda yuz bergan voqealar emas, insonning (Lutfiyning) ko'nglidan kechgan tarix, yashirin, ko'zga darhol tashlanavermaydigan tarjimai hol"iga e'tibor qaratadi. Mirza G'olib do'sti Lutfullaning Lutfiy haqida aytgan gaplarini xotirlab, uxlash uchun to'shak-taxtaga yotar ekan, ko'zi xaroba uy ichida xona to'ridagi olachalpoq pardaga tushadi. Qiziqib, pardaning ortida nima bor ekan, deb o'ylab pardani surib ko'radi. Mirza G'olib pardaning ortida dashtga suv olib boradigan yarim ochiq quvurmi, kattakon tarnovgami o'xshagan narsani, narsa ichida bir-birining oyog'iga bosh qo'yib, qator yotgan uchta jasadni ko'radi. Jasadlar yangi, yaqindagina keltirilgan bo'lsa kerak, ilk qarashda shirin uyquga ketgan kishini eslatishar edi. Ushbu holatni tasvirlar ekan, Omon Muxtor o'z uslubiga sodiq qolgan holda mavjud voqelikka quyidagicha she'riy munosabat bildiradi:

Uyquga o'xshar – o'lim;

O'lim o'xshar – uyquga...

Jasادلarning uchalasi ham Mirza G'olibga qandaydir tanish, ularni qayerdadir ko'rgandek edi. Boshqa biror joy, boshqa biror sharoitda mabodo shunday vaziyatga duch kelsa, albatta, oyog'ini qo'liga olib, orqasiga qaramasdan qochishi mumkin edi. Lekin hozir boradigan joyi yo'q, u bo'm-bo'sh olam bilan go'yoki yuzma-yuz qolgan, ummonda qo'liga ilingan taxtaga yopishib olgan odam edi. Mirza G'olib o'zini dadil tutishga uringan holda to'shakka cho'ziladi. Nihoyatda charchagan edi, uxlashi kerak edi. Lekin xayolini uchta jasad band qilgan. "Dunyoda qabriston yaqinida yashagan, qabristonga kunda kirib-chiqib yurgan kishilar qancha, sen hozir shunday holatdasan, chida..." – deya o'ziga dalda berib, uxlagisi, uyquga berilib, olamni unutgisi keladi. Biroq to'lg'anib, uxlay olmaydi. Shunda u yana Lutfullani, u bilan birga o'zining ikki marta xastalanib, kasalxonada yotgach, uchinchi marta oldingidan qattiqroq "qoqilgani", yiqilganini eslaydi. Biroq yozuvchi bu uchinchi "qoqilib yiqilish" sababini ochiqqlamagan. Anig'i shuki, uni bu safar oldingidek g'aribona kasalxonaga emas, keng hovlisi bor, oppoq binoga ega, telefon va televizorlari mavjud, alohida xonalar va ularning har biriga biriktirilgan mehribon hamshiralarga ega kasalxonaga yotqizishadi. Ammo o'sha kunlarda Mirza G'olibning o'lim to'g'risida o'ylamagan kuni yo'q, ko'ziga hech narsa ko'rinmas, dunyo unga qorong'i edi. Kasalxona uni jarrohlik yo'li bilan davolashlari kerak edi. Aravachada jarrohlik amaliyotiga olib borishayotgan paytda Mirza G'olib umrida birinchi sirli, aql bovar qilmas holatga duch keladi: u uchta Menga aylanib, uch joyda hayot kechiradi. Tushmi, xayolmi desa, hammasi aniq ko'rinib turar edi. Bundan keyingi voqealar o'quvchini syurrealizmga xos fantazmatik olam – xayolot dunyosiga yetaklaydi. Birinchi Men – hamon aravachada, shiftga tikilib yotibdi.

Ikkinchi Men esa ikki o'zga sayyoralik bilan katta kemalardagi muallaq kursilarga o'tirib, osmonga, o'zga olamdagi charog'on shaharga, go'yo – Jannatga sayohatga jo'naydi. Ikkinchi men osmondagi shaharda kezayotgan ayni payda Uchinchi men – o'shanda urush borayotgan Afg'onistonga qarab jo'naydi. Mirza G'olib uchinchi "men"i orqali do'sti Lutfullaning Afg'onistonda bo'layotgan urush paytidagi hayotini yashay boshlaydi. U yerda – Hiri (Hiro)da Dehikanorni izlab topadi. Bu orada bir dam hushiga kelgan Mirza G'olib qo'lini mehribonlik bilan silayotgan yoshgina hamshira qizni ko'radi. Uning ismi Gulgun ekanligini bilgach, yana Uchinchi mening hayotiga qaytadi. Chunki Uchinchi meni Lutfiy hayotini o'rganishga qattiq bel bog'lagan va Lutfiyning yori ham Gulgun edi. Uchinchi menning hayotini tasvirlash asnosida Omon Muxtor Lutfiyning tarixini, uning kechinmalarini yoritishga urinadi va ora-orada Mirza G'olibga ham "qaytib turadi". Masalan ana shunday "qaytish"lardan biri: "Tepalikdagi g'arib binoda, kimlardir yotib-turgan to'shakda to'lg'anayotgan Mirza G'olib ... qachon ko'zi ketib, qotib qolganini bilmas edi.

Tun bag'rini yorgan nolami-qichqiriqdan cho'chib uyg'ondi.

Uni ter bosgan, hammomdagi singari badani jiqqa ho'l edi. Kechasi bo'lsa hamki, ayni saratonda eshik-derazani ochmay, ko'rpaga burkanib yotgach, u pishmay, kim pishsin...

O'rnidan turib-turmay ko'zi tushdi... Xona sutdek oy nuriga to'lgan, shu bilan birga, o'zidan nur o'tkazayotgandek, nurga xalal bermay, kimdir derazaga yopishib olgan edi!"[5; 323-b.] Derazaga yopishib olgan shaffof ko'lanka titrab-qaqshab, qichqirib: "Och, nomard! Och! Yordam beringlar! O'laman..." – degancha xonaga kirishga urinadi. U biror ayol falokatga yo'liqqandir, qo'rqqoqlik ham evi bilan-da, deya derazaga yaqinlashadi va es-hushidan og'adi. Tashqaridagi ayol – Mastura edi. U shoshib eshikni ochishga chog'lanadi, lekin es-hushini yig'ib

o'ylab ko'rsa, yarim kechada bu to'qayzorda Mastura nima qiladi? Qolaversa, xona to'ridagi olachalpoq parda ortidagi jasadlar ham eshikni ochishdan ogohlantirayotgandek edi. Shu payt tinchi buzilgan, qayerdandir paydo bo'lgan yungi paxmaygan, ayiqdek it uv tortib, qattiq hurayotgani eshitiladi. Eshikni shoshib ochishga chog'langan Mirza G'olibning ko'z o'ngida dabdurustdan tashqaridagi ayol burishib-bujmaygan kampirdek qiyofaga kiradi. Keyin g'ijimlab-yoqqan qog'oz singari qorayib, tusi o'chadi.

Mirza G'olib o'zi nima bo'layotgan edi-yu, nima bo'ldi, bilmaganidan dahshatga tushgan, birov eshik-derazani buzib, ana-mana bostirib kiradigandek, qimir etmay o'tirar edi. Uning ushbu holatida haqiqat bilan yolg'on, o'ng bilan tush, botin bilan zohir aralashib ketgan, xullas, hammasi ayqash-chayqash edi. Bu holat o'quvchi-kitobxonga ham ta'sir qilmay qolmaydi, albatta. Har bir kishi umri davomida mana shunday bir holatga tushgan va shu kabi holatlari xotirasida jonlanadi. Tunni bir alfozda bedor o'tkazgan Mirza G'olib tong otganda yo'lga chiqish oldidan yana bir marta olachalpoq parda ortiga qaraydi. Lekin bir-birining oyog'iga bosh qo'rib yotgan jaslardan nom-nishon yo'q edi. Birinchi ko'rinish shu bilan tugaydi. Ushbu qismdagi voqealarni tahlil qilar ekanmiz, unda real hayot bilan xayolot olami qorishib, asl haqiqat nimada ekanini tushunishga intilgan o'quvchi qahramoni Mirza G'olib kabi bir arosatda qoladi. Narkota'sir (narkoz) sababli yuzaga kelgan Ikkinchi va Uchinchi menlarning kechinmalari o'quvchini norealistik olamlarga yetaklaydi.

“Ko'ngul qushi” deb nomlangan “Ikkinchi ko'rinish” ham an'anaga muvofiq she'riy epigraf bilan boshlanadi. Navoiy va Nodira ijodidan keltirilgan namunalarni ushbu qismning mazmuniga olib boruvchi havola deyish mumkin. Ya'ni bu qismda Mirza G'olibning ko'ngil iztiroblari bayoniga ko'proq urg'u qaratiladi. Shuningdek, tunda uchratgan (balki, uchratmagan) jaslarning shaxsiga aniqlik kiritiladi: “Mirza G'olib to'qayzorda sudralib borayotib, hozir kechagi – uchratgan paytidagidan ham yorqinmi-yaxshiroqmi?! – barcha tafsiloti bilan eslay boshladi... Marhumlardan birining boshida fo'ta, egnida odmi yaktak; yuzi chuvak, kichik soqol qo'ygan... Ikkinchisi: boshida kuloh, egnida janda; patila-patila sochlari kuloh ostidan chiqqan, kamarigacha tushgan; soqoli ham qalin, to's... Uchinchisi: boshiga hoshiyali qalpoq qo'ndirgan, negadir qo'lida yupqa, oq qo'lqop; yonida kalta bir tayoq ham yotibdi; yuzi qonsiz, ammo juda ko'hli...

Mirza G'olib ketayotgan joyida bexosdan chayqalib-gandiraklagancha, to'xtadi.

“Ey, Xudoyim-ey! Ey, Xudoyim-ey!”

U yuzlashgan marhumlar – oddiy, bu kungi odamlar emas, unga qandaydir – kitoblarda ko'rgan tasvirimi, tasavvuri bo'yichami?! – aziz, buyuk bir insonlar: Lutfiy, Mashrab, Bayronni eslatgan edi!” [5; 328-b.]. Mirza G'olibning ongida bunday buyuk insonlar o'lmaydi, ular doimo biz bilan yashaydi, degan xayol jonlanadi. Tunda ko'rgan bu insonlar o'lmagan, balki yaqindagina mangu uyquga ketgandek edi. Bu jaslarning holati muqaddas Qur'oni Karimning “As'hobi Kahf” surasida keltirilgan voqealarga ishoradek tuyuladi. “G'or sahobalari”ning qo'riqchi iti – tunda Mirza G'olibni shaffof, nur o'tkazuvchi ko'lankadan qutqargan, yungi paxmaygan, ayiqdek keladigan itga qiyoslanadi go'yo.

Omon Muxtor Mirza G'olib vositasida Lutfiy, Mashrab va Bayronning tarjimai holini dastlab qisqa holatda keltiradi. Jumladan, Mashrab va Bayronning vafot etishi, dafn etilishi bilan bog'liq rivoyatlarni hikoya qiladi. Keyinchalik esa asosiy e'tibor Lutfiyga qaratiladi. O'lim to'shagida yotgan Lutfiyning ruhiyatidagi kechinmalari, yoshlik xotiralari – muhabbati bo'lgan Gulgun portreti chizmalari bayon qilinadi. Ushbu xotiralarga qaytish sahnasi syurrealizmga xos

tarzda tasvirlangan: “Lutfiy... u yoshargan edi! Uyda yotishga toqat qilolmayotgan edi! Bundan ham oʻtadigan joyi: derazadan koʻz uzib, burilib qaragan edi... unga – oʻzining kekxa bir shakli oʻrinda choʻzilib yotgandek tuyuldi! Bu shakl unga yoqmadi. Yuragi qisib, tezroq uydin chiqishga chogʻlandi.

Boshiga odatdagi shabpoʻsh ustidan foʻta oʻrab, egnidagi odmi yaktak oʻrniga jun chakmon kiydi. Qoʻliga hassa olib, apil-tapil eshikni ochdi... Hovliga chiqqanida, uni ajablantirgan yana bir hol yuz berdi.

Atrofni oppoq chodirga aylanib, chirmab-qamrab yotgan qor nechundir parcha-parcha bulut boʻlib, yerdan osmonga koʻtarildi. Soʻng, hovlidagi qorayib turgan daraxtlar birdan koʻkarib, yashnab ketdi. Bir zumda gulzordagi anvoyi gullar ham barq urdi! Bu ham yetmagandek, hovlining huv etak tomonidan baralla bulbullar chax-chaxi eshitila boshladi”[5; 334-b.]. Ushbu tasvirlar, albatta, real olam bilan bogʻlangan, oʻzini sogʻlom deya his qiladigan moddiyat kishisi uchun gʻirt bemaʼnilik – absurddek tuyulishi mumkin. Biroq syurrealistlarning ham oʻz haqiqati bor: ular uchun bu kabi fantazmatik (xayoliy) voqeliklarning ortida real hayot yashaydi.

Lutfiy haqidagi voqealarni maroq bilan oʻqiyotgan oʻquvchining toʻqayzorda adashib, har safar aylanib-aylanib yana oʻsha tepalikdagi xaroba qarshisida paydo boʻlib qolayotgan Mirza Gʻolibni unutib qoʻyishidan choʻchigandek, yozuvchi voqealar rivojini qaytadan Mirza Gʻolibga yoʻnaltiradi. Oʻquvchi tasavvurida bugungi kun bilan oʻtmish birlashib ketgandek taassurot uygʻotadi. Mirza Gʻolibning yuragini yana shu tepalikdagi xarobada tunni oʻtkazish iztirobi ezar edi. Yolgʻizlikda uning butun hayoti koʻz oldidan qayta oʻta boshlaydi. U tarixni yaxshi koʻrardi. Tarixchi boʻlishni orzu qilardi. Shu yoʻlda taniqli ustozlar orttirgan. Lekin ikkalasining hayoti ham fojia. Biri – Sanjar Mahzun, ikkinchisi – Ilyos Hayrat.

Sanjar Mahzun – ateistik ekzistensial kishisi, imon-eʼtiqoddan mosuvo, hayotligida qadr topgan, tarixni zamonga moslab talqin qilgan, kitoblari har yilda 50 ming nusxalab chop etilgan, biroq oʻlganidan soʻng tezda unutilgan shaxs.

Ilyos Hayrat – diniy ekzistensial, hayotligida qadrlanmagan, tarixni boricha talqin qilgan, kitoblari toʻrt-besh yilda 2-3 ming atrofida chop etilgan, biroq oʻlganidan soʻng asarlari mashhur boʻlgan shaxs.

Mirza Gʻolib oʻzi uchun mana shu ikki yoʻldan birini tanlashi kerak. Lekin ikkisidan ham koʻngli toʻlmaydi, arosat bir yoʻlda edi. Uning shu kabi oʻz taqdiri haqidagi oʻylari bilan “Ikkinchi koʻrinish” nihoyasiga yetadi.

“Uchinchi koʻrinish” “Xoh inon, xoh inonma” deb nomlanadi. Bu qism epigrafida Lutfiy, Navoiy va Zavqiy ijodidan namunalar keltirilgan. Mirza Gʻolib hamon toʻqayzorda tentirab, adashib yurar edi. U nogahon bir soʻqmoq qarshisidan chiqadi. Soʻqmoq boshidan qandaydir chang-toʻzon yoki bulutmi unga yaqinlashib kelar edi. Biroq vaqt oʻtishi bilan aniq boʻladiki, bu tilsim oxiri koʻrinmas insonlar toʻdasi ekan. Ajablanarlisi, bu insonlar, asosan, juldur kiyingan qariyalar, yosh bolalar, nogironlardan iborat edi. Mirza Gʻolib ulardan katta yoʻlni soʻrab bilmoqchi boʻladi, lekin hech kimdan tayinli bir javob ololmaydi. Suhbat jarayonida maʼlum boʻladiki, bu insonlar bundan ming yil oldin somoniy hukmdor Amiri said Abul-Hasan Nasr davrida Buxoroda yashab oʻtgan kishilar edi. Ular nuqul: “Bizga yo hakim, yo hokim kerak!” – der edi. Hakim – u vaqtda hali tugʻilmagan ibn Sino boʻlsa, hokim – ayni somoniylar podshosi edi. Mirza Gʻolib, avvaliga, bu kishilarni aqlidan ozgan, ruhiy xasta deb oʻylaydi, oʻzidan ham shubhalanadi. Oʻz xayollariga berilib, yodiga farzand kutayotgan xotini – Mastura tushadi. Unga

nisbatan adolatsizlik qilgani, uni yolg'iz qoldirib hasharga ketgani, uning qadriga yetmagani, uni yetarlicha seva olmagan Mirza G'olibni iztirobga solar edi. Shu kabi xayollar og'ushida beixtiyor Lutfiyning sevgiga sadoqati, buyuk shoirning muhabbati eslanadi. Bu o'rinlarni Omon Muxtor lirik va epik tasvir uyg'unligida ifoda etadi: "Lutfiy yozgan edi,

Valvala soldi ko'zlaring –
kofir-u din ahli aro...

Kofirlik-kufr – yovuzlik. Kofirni nima uchun aralashtiryapti, deysizmi? Inson sevgandan keyin:

Men agar kofir edim,
emdi musulmon bo'ldim...

Buning uchun shukrona keltirish kerak:

Seni ko'rgan sayin, – Olloh! – derman...

Nihoyat, oshiqning ochiq-oydin iqrori:

Qilmang meni ishq uchun malomat, –
Chun ishqani ham Xudo yaratdi..." [5; 360-b.]

Yana shu kabi Lutfiy ijodidan keltirilgan ko'plab she'riy jumlar orqali mavzu buyuk shoirning sevgisi haqidagi voqeliklarga buriladi. Jumladan, Lutfiy va Gulgunning sevgi iztiroblari, kechinmalari batafsil tasvirlanadi. Omon Muxtor Lutfiyning Gulgun hajridagi holatini tasvirlar ekan, nasriy yo'lda ham lirik imkoniyatlardan ustalik bilan foydalanish mumkinligini isbotlaydi:

"Kunlar. Tunlar...
Zorlik. Intizorlik..." [5; 364-b.]

Shu tarzda Lutfiyning vafotiga qadar bo'lgan sevgi qissasi tarixi bayon qilinadi. Buyuk shoirning shu kabi ko'plab she'rlarining yozilish tarixi sabablari keltiriladi.

Mirza G'olib hamon to'qayzorda adashib, tentirab yurar edi. O'sha so'qmoqda yana bir kichik liliputlarga o'xshash odamlar guruhiga duch keladi. Ular qandaydir kattakon tobutni ko'tarib, yugurgilab kelishmoqda edi. Mirza G'olib ulardan kimni olib ketishayotganini pichirlab so'raydi. Lilitpular esa somoniy hukmdor Amiri sa'id Abul-Hasan Nasrni olib ketishayotganini jo'r ovozda baralla aytishadi. Ularning to'dasiga nima uchundir yungi paxmaygan, ayiqdek it ham qo'shilib olgan edi. Mirza G'olib somoniylar tarixini jiddiy o'rgangan, bu haqida kitob yozgan edi. Keyingi voqealar rivoji "Uchinchi ko'rinish" so'ngigacha somoniylar tarixi haqidagi tafsilotlarga bag'ishlanadi.

"To'rtinchi ko'rinish" "Ism jinnisi" deb nomlanib, an'anaga muvofiq she'riy namunalar keltirilgan epigraf bilan boshlanadi. Epigraf sifatida Navoiy, Robindranat Tagor va Sobir Abdulla ijodidan parchalar berilgan. Bu qismning "Ism jinnisi" deb nomlanishi va unga hind shoiri R.Tagor ijodidan epigraf keltirilishi bejiz emas. Mirza G'olibning bolalikdagi do'sti Lutfulla har bir nomga nihoyatda e'tiborli edi. Bir kuni hatto Mirza G'olibdan ham uning ismining ma'nosini so'raydi. O'z ismining ma'nosini bilmagan Mirza G'olibga bu nomning tarixi Bayron bilan zamondosh mashhur hind shoiri Mirza G'olibning nomi bilan bog'liqligini tushuntirib beradi.

Mirza G'olib bir necha kundan beri och-nahor, o'lar holatda to'qayzor oralab, adashib yurar edi. Bu orada u yana bir tunni tepalikdagi xarobada o'tkazadi. Yana o'sha holat: xarobani yungi paxmaygan, ayiqdek it qo'riqlamoqda. Uy ichida xonaning to'rida olachalpoq parda ortida uchta jasad bir-birining oyog'iga bosh qo'yib, mangu uyquga ketgan.

Mirza G'olib so'qmoq oralab, nihoyat kechga yaqin katta yo'lni topadi. Katta yo'ldan izma-iz mirshablar mashinasi va ikkita tez yordam mashinalari o'tib ketadi. Mirza G'olib ularga qo'l ko'tarishga ham ulgurmay qoladi va piyoda ketishga majbur bo'ladi. Bozorgacha piyoda yurib, u yerda boyagi mashinalar to'xtab turganini ko'radi. Yo'l chetida esa uchta jasad yotardi. Bu jasadlar tunda xarobada ko'rgan jasadlarga juda ham o'xshar edi. Mirshablar mashinasining orqa tomoni ochiq, unda esa qo'llariga kishan taqilgan yana uch kishi – Mardonqul aka, Tenglash va Hakimjon qo'nishib o'tirar edi.

“Voqeaning oxiri” ijobiy yakunlanadi. Avtobusda uyiga ravona bo'lgan Mirza G'olib fabrikada xotini bilan birga ishlaydigan hamkasbidan Masturaning daragini, o'g'il farzand ko'rganini, chaqaloqning ahvoli yaxshi ekanligini biladi. Roman shu tariqa o'z nihoyasiga yetadi.

Natijalar. Romanni o'qigan o'quvchi-kitobxon real hayotni unutib, ancha vaqtgacha asar ta'siridan chiqib keta olmaydi. Mirza G'olib bilan birga to'qayzorda adashib tentiraydi, to'g'ri yo'l – haq yo'lni axtarib toliqadi, shuningdek, tush bilan o'ng, tarix bilan bugun orasida sargardon kezadi. Shu kabi syurrealistik tasvirlar adibning boshqa asarlarida, jumladan, “Ming bir qiyofa”, “Ko'zgu oldidagi odam”, “Aflotun” romanlarida ham uchraydi. Bu asarlarda “xayol bilan hayot, fantastika bilan reallik o'ziga xos mushtaraklik kasb etadi. Masalan, Abdulla Hakim ruhining o'lganidan so'ng o'z jasadini yuqoridan kuzatib turishi, to'qqiz qavatli “Tarix va Madaniyat” tashkilotining bir kechada g'oyib bo'lib qolishi (“Ming bir qiyofa”), Siroj muallim jismining uch qiyofaga ajralib uch yoqqa ketishi (“Ko'zgu oldidagi odam”), cheksiz sahrodagi quduq ichidan Usmonning darveshlar to'dasiga duch kelishi (“Aflotun”), Mirzo G'olibning dashtdagi xarobada Bayron, Mashrab, Lutfiy jasadlarini ko'rishi (“Tepalikdagi xaroba”) o'tmish bilan bugun o'rtasida chegara yo'qligi, bugun ham ertaga o'tmishga aylanishi muqarrarliligi haqidagi falsafiy fikr ifodasiga xizmat qilgan. Shuningdek, voqealar rivoji va syujet mantiqiyligi, uydirmaning hayotiy, falsafiy asosda dalillanishi kitobxonni ishontiradi”[8; 91-b.]. Olimning ushbu fikrlari ham bizning so'z yuritayotganimiz moderncha uslub, ya'ni voqealar tasvirida o'zgacha bo'lgan syurrealistik tafakkur tarzidan foydalanganligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Omon Muxtorning syurrealistik dunyoqarash ta'siri asosida ruhiyat tasviri uslubidan foydalanishi yuqorida qayd etilganidek, faqatgina “Tepalikdagi xaroba” romanida emas, “Ming bir qiyofa”, “Ko'zgu oldidagi odam”, “Aflotun” kabi romanlarida ham ko'zga tashlanadi. Bu holat Omon Muxtorning o'ziga xos, boshqa ijodkorlardan ajralib turadigan poetik uslubi mavjud ekanligini dalillaydi. Shuningdek, syurrealizm sharq adabiyotiga begona emasligi, uning folklarga xos mifopoetik ko'rinishda namoyon bo'lishi oydinlashadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 8-tom, 2004. B. – 820.
2. Louise Ward. Syurrealizm./ [Syurrealizm - kontseptsiyasi, xususiyatlari va vakillari - Ta'Lim - 2023 \(wvpt4learning.org\)](https://syurrealizm-kontseptsiyasi.xususiyatlari.va.vakillari-ta-lim-2023.wvpt4learning.org), 2021-y.
3. Gloria Harrison. Syurrealizm nima?/ [Syurrealizm Nima? | Ilmiy faktlar 2023 \(scienceforming.com\)](https://syurrealizm-nima-ilmiy-faktlar-2023.scienceforming.com), 2023-y.
4. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007.
5. Omon Muxtor. To'rt tomon qibla: uch romandan iborat Sharq daftari: (trilogiya). – Toshkent: Sharq, 2000.
6. [Андре Бретон. Манифест сюрреализма, 1924 год | Блог перемен. Peremeny.Ru \(Кириш вақти – 25.04.2024\)](https://peremeny.ru)
7. [Ризома — Википедия \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org) (Кириш вақти 19.04.2024)

8. Sabirdinov A. Ma'naviyat va ma'rifat chashmalari. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
9. Xolbekov M. Struktur adabiyotshunoslik. – Toshkent: Navro'z, 2014. – B. 108.
10. Санжар Содиқ. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 171-172.
11. Hasanov Sh. Doston tarkibi va tabiati. – Samarqand: SamDU nashri, 2011. – B. 25.
12. Qur'onov D., Mamajonov Z. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 398 b.
13. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarning ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 376 b.
14. Pirmqul Qodirov. Ma'naviyat, modernizm va absurd // O'zAS, 2004, 12-son.
15. Азизов Н.Н. Омон Мухтор романлари поэтикаси: реализм ва фантастика уйғунлиги: Филол.фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2022. – Б. 56.
16. Atabayeva G.F. Omon Muxtor romanlarida shakliy-uslubiy o'ziga xoslik: Filol.fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Guliston, 2023. – Б. 52.
17. Qur'onov D. Adabiyot nadir yoki Cho'lponning mangu savoli. – Toshkent: Zarqalam, 2006. – B. 103.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).